

Mavzu: **Bo'g'in**

Aa Hijjalasang ham tōgri ōqi.*

* **hijjalab** – bo'g'inlab o'qish ma'nosida



1-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inga ajratib yozing.

Maktabim

Ona kabi mehribon¹,
Ilm-fanlarga makon.
Yayrab o'qiyman har on,
Qadrdonim maktabim.

Senda darslar xilma-xil,
O'qib, o'samiz har yil.
Sevinchlarga to'lar dil,
Qadrdonim maktabim.

Ilyos Muslim

- **Kim?, nima?** so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.



2-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inga ajratib yozing. Harflarning alifbodagi tartib raqamlaridan foydalanib, o'simlik nomini toping.

Bahor va yozda **ochilib**, kuzda yorqin qizil dorivor mevalar tugadigan bu tikanli buta xalq tabobatida juda **qadrlanadi**. C vitaminiga o'ta boy ushbu **shifobaxsh o'simlikning** mevasidan tayyorlangan damlamalar **immunitetni** kuchaytirish hamda shamollashga qarshi kurashishda eng samarali va zararsiz **tabiiy** vosita hisoblanadi. Bu dorivor o'simlikning nomi:

13, 1, 30, 12, 1, 19, 1, 10



3-mashq. Chegaralarni aniqlab, soʻz va soʻz birikmalarini oʻqing.

MUSTAQILLIK OʻZBEKISTON ERKINLIK OZODLIKDIYORIM
BILIMLAR BAYRAMI OBYOTIM MUSTAQILLIKMAYDONI

- Ularni boʻgʻinga ajratib talaffuz qiling.



4-mashq. Topishmoqni oʻqing.

Sandiq toʻla pista-bodom,
Ochib koʻr, boʻlsang odam.
Xosiyati koʻp, olam-olam,
Terib ol uni har dam.



- Topishmoqdagi qofiyadosh soʻzlarni aniqlang.
- Soʻzlarni boʻgʻinga ajratib talaffuz qiling.




5-mashq. Gaplarning chegarasini aniqlab, oʻqing.

Oltin kuz fasli kirib keldi mayin shamol esib, daraxtlarning sariq, qizgʻish yaproqlarini yerga sochadi bogʻlar va xiyobonlar oltin tusga kirib, goʻzal manzara hosil qilgan kuz tabiatini tomosha qilish juda yoqimli atrof jim-jit, osmon esa musaffo va moviy naʼmatakalar alvon rangga kirib, koʻzlarni quvontiradi daraxt shoxlarida qolgan yaproqlar esa shamolda asta tebranadi hatto qurt-qumursqalar ham sovuq kunlarga tayyorgarlik koʻrib, inlariga yashirina boshlaydi kuzning salqin va musaffo havosi kishiga tetiklik baxsh etadi.

- Oxirgi gapni boʻgʻinga ajratib yozing.



6-mashq. Bo'g'inlardan so'zlar hosil qiling va yozing.



- So'zlar tarkibidagi harflardan yangi so'zlar yasang.

Namuna: usta, ...



7-mashq. O'qing. Bo'g'inlarga ajratib ko'chiring.

Bu yil sinfimizga yangi o'quvchi keldi. Vova rus millatiga mansub bo'lishiga qaramay, o'zbek tilida bemaol gaplasha oladi. U rasmni qoyillatib chizar ekan. Rasm chizish uchun barcha anjomlari ham bor. Chizgan rasmlaridan ayrimlarini bizga ko'rsatdi. Ayniqsa, u chizgan mushuk¹ rasmi hammaga yoqdi.

Rasmga qarab, haqiqiy mushukni ko'rganday bo'ldik. Rasm juda chiroyli chizilgan. Vova bizga ham rasm chizish sirlarini o'rgatishga va'da berdi.

- Yopiq bo'g'inlarning tagiga chizing.
- Sizning boshqa millatga mansub o'rtoqlaringiz bormi?

